



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 6-oktabr, № 210 (8553)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTINING ROSSIYA FEDERATSIIYASIGA TASHRIFI BOSHLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasida rasmiy tashrif bilan bo'lib turibdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Qozon shahriga keldi.

Abdulla To'qay nomidagi xalqaro aeroportda davlatimiz rahbarini Rossiya Hukumati Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov kutib oldi.

Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahridagi "Kazan Ekspo" markazida ochilgan Tatariston sanoat salohiyati

ko'rgazmasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbariga Rossiya Hukumati Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov hamrohlik qildi.

4-oktabr kuni bu yerda uchinchi O'zbekiston — Rossiya hududlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi. Prezidentimizga ushbu tadbir yakunlari to'g'risida batafsil axborot berildi.

Davlatimiz rahbari Tataristonning yetakchi korxonalari sanoat mahsulotlari va texnologiyalari bilan tanishdi.

Ko'rgazma doirasida Rossiya Hukumati Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Navbatdagi O'zbekiston va Rossiya hududlari forumida erishilgan kelishuvlarni, eng avvalo, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qozon Kremli" tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqonasida bo'ldi.

Davlatimiz rahbariga Tatariston Raisi

Rustam Minnixonov hamrohlik qildi.

Qozondagi Kreml YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. U Qozonning eng qadimgi qismi bo'lib, shaharning ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etgan me'moriy, tarixiy va arxeologik yodgorliklardan iborat.

Bu yerda O'zbekiston Prezidenti "Qul Sharif" masjidini kirib ko'rdi. Tatariston musulmonlari diniy boshqarmasi raisi, muftiy Kamil Samigullin oliy martabali mehmonga masjid tarixi haqida batafsil so'zlab berdi. Duo o'qildi.

Masjid 1996 — 2005-yillarda Qozon xonligi hududida XVI asrning ikkinchi yarmiga qadar mavjud bo'lgan juma masjidi o'rnida bunyod etilgan va Imom Qul Sharif nomi bilan atalgan.

Davlatimiz rahbari Qozon va Tatariston mitropoliti Kirill hamrohligida Blagovesensk soborini ham ko'zdan kechirdi. Qozon Kremli hududidagi obidalarning eng qadimgisi bo'lgan ushbu inshoot XVI asrda bunyod etilgan. Pskov me'morchilik an'analari yorqin namunasidir.

Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrifi doirasida Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari keyingi yillarda o'zaro hamkorlikda yuqori natijalarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Savdo va investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Toshkent viloyatida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Jizzax viloyatida texnopark qurilishi davom etmoqda.

Kimyo tarmog'i va mashinasozlikda yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda. Jizzax shahrida Qozon federal universitetining filiali ishlamoda.

Qozon shahrida o'tgan uchinchi O'zbekiston — Rossiya hududlararo hamkorlik forumining yakunlari, jumladan, O'zbekiston hududlarida Rossiyaning "Alabuga" va "Master" texnoparklari

bilan yangi sanoat parklarini tashkil etish bo'yicha erishilgan kelishuvlar qayd etildi.

Metallarga ishlov berish, axborot-kommunikatsiya, uy-joy kommunal sohalarida istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, ta'lim, turizm va yoshlarga oid siyosatda hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv yakunida muhim yo'nalishlar bo'yicha amaliy sheriklik loyihalarini qo'shma "yo'l xaritalari" asosida ilgari surishga kelishib olindi.

Rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozondan Moskvaga keldi.

Rossiya poytaxtining "Vnukovo-2" aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga O'zbekiston va Rossiya davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordir. Tantanal kutib olish marosimi bo'ldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 6-oktabr kuni ikki mamlakat yetakchilari tor va kengaytirilgan tarkibda muzokara o'tkazadilar. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilinadi.

Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor yo'nalishlarda har tomonlama hamkorlikning holati va istiqbollari ko'rib chiqish rejalashtirilgan. Mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashiladi.

O'zbekiston Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin bilan ham muzokara o'tkazadi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sog'liqni saqlash organlari faoliyati haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 14-fevralda qabul qilingan
Senat tomonidan 2023-yil 24-avgustda ma'qullangan

Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish doirasida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida talay ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlarning natijalari, sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlarining, birlamchi tibbiy sanitarliya yordami muassasalarining faoliyati to'g'risida jamoatchilikning xabardorligini oshirish, shuningdek mazkur organlar va muassasalar faoliyatining ochiqligini ta'minlash zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu tufayli mazkur Qonun bilan "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan yarim yillik yakunlari bo'yicha tegishincha sog'liqni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari rahbarlarining sog'liqni saqlashni rivojlantirishga oid davlat dasturlarining bajarilishi, kasalliklar profilaktikasining holati, sog'lom turmush tarzini va to'g'ri ovqatlanishni shakllantirish, shuningdek sog'liqni saqlashning asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi hisobotlarini eshitishni nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritilmoqda.

Bundan tashqari "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga fuqarolar yig'inlari tomonidan tegishincha aholi birlashtirilgan tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari, oilaviy poliklinikalari va oilaviy shifokor punktlari rahbarlarining sog'liqni saqlashning holati hamda fuqarolar sog'lig'iga ta'sir etuvchi omillar, shu jumladan tegishli hududning sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi axborotini eshitishni nazarda tutuvchi o'zgartish kiritilmoqda.

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston elchisi Botirjon ASADOV:

MAMLAKATLARIMIZ O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR SO'NGGI O'N YILLIKLARDAGI ENG SAMARALISI HISOBLANADI

Oliy darajadagi O'zbekiston — Rossiya sammiti arafasida "RIA Novosti" axborot agentligi tomonidan mamlakatimiz elchisi Botirjon Asadov bilan ikki mamlakat munosabatlariga bag'ishlangan intervyu e'lon qilindi.

Biz va jahon

Unda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi hamkorlikning ayni holati va istiqbollari haqida so'z borgan.

O'zbekiston elchisi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar hozirgi bosqichda so'nggi o'n yilliklardagi eng samaralisi

hisoblanishini ta'kidlagan. "Bu ikki tomonlama munosabatlarning o'zaro hamjihatligi, boyligi, shiddati va eng muhimi, sifati bilan ajralib turadi, — deydi diplomat. — Rossiya, shuningdek, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biridir. O'tgan yil yakunlariga ko'ra tovar ayirboshlash hajmi to'qqiz milliard dollardan oshdi va jadal o'sib bormoqda".



SPORTCHILARIMIZNING NAVBATDAGI MUVAFFAQIYATLARI



Osiyo o'yinlari

Hasanboy Do'smatov Osiyo o'yinlari davomida dastlab Janubiy Koreya vakili Sex Yeong Jodan ustun keldi. Keyingi bosqichda yanada kuchli raqib qozog'istonlik Saken Bibosinovni taslim etdi. Hamyurtimiz chorak finalda pokistonlik Zohayb Rashidni musobaqadan chiqarib yuborgan bo'lsa, yarimfinal jangida yaponiyalik Tomoya Suboini 4:1 hisobida yengdi.

Yana bir iste'dodli bokschimiz Abdumalik Xalokov (-57 kg.) ham

Osiyo o'yinlaridagi ishtiroki bilan muxlis-u mutaxassislar ishonchini oqladi. Abdumalik musobaqadagi dastlabki jangini Xitoy Taypeyi vakili Chen Vey Liga qarshi o'tkazib, katta ustunlik bilan g'alabaga erishdi. Hamyurtimiz keyingi bellashuvlarda Van Duong Nguyen (Vyetnam), Karlo Palaam (Filippin) va Ping Lyu (Xitoy)ni yengib finalga qadar yetib keldi. Oltin medallar uchun kechgan bellashuvda esa yaponiyalik Shudai Haradani

mag'lub etdi.

O'zbek boks maktabining yorqin yulduzlaridan biri Bahodir Jalolov (+92 kg.) ham Osiyo o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritdi. Hamyurtimiz musobaqa davomida tojikistonlik Muhammad Abroriddinov, xitoylik Danabayk Baykuzini mag'lubiyatga uchratib finalga chiqdi. Hal qiluvchi bellashuvda esa qozog'istonlik Kamshibek Konkabayevni mag'lub

Videolavhada ko'ring



Xitoyning Xanchjou shahrida davom etayotgan XIX Osiyo o'yinlarining navbatdagi kuni o'zbek sportchilarining yorqin g'alabalariga boy bo'ldi.

Boks bo'yicha uyushtirilgan final bellashuvlarining uchtasida ishtirok etgan hamyurtlarimiz raqiblarini mag'lubiyatga uchratdi. Jumladan, nufuzli musobaqadagi muvaffaqiyatli g'alabaga bo'lgan bokschilar bahsida qatnashgan mahoratti sportchimiz Hasanboy Do'smatov tailandlik Titisan Panmotni mag'lubiyatga uchratib, Osiyo o'yinlari g'olbiga aylandi.

Senat Kengashida

MAXSUS IQTISODIY ZONALARDAGI O'RGANISHLAR TAHLILI

Kecha bo'lib o'tgan Oliy Majlis Senati Kengashi majlisida dastlab maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligi va ularga xorijiy investitsiyalar jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijalari muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda MIZ faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etishda soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash borasida keng ko'tamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2020-yilda

qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun bilan MIZ tashkil etish va faoliyat ko'rsatish tartib-taomili takomillashtirildi, ma'muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish, ular direksiyalarining vakolatlarini kengaytirish orqali faoliyatini boshqarish mexanizmi

soddalashtirildi. Ayni chog'da MIZ ishtirokchilariga qator imtiyoz va preferensiyalar berilgan bo'lib, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yilgacha soliq va bojxona imtiyozlari davlat tomonidan kafolatlendi.

Joriy yil 1-sentabrga qadar maxsus iqtisodiy zonalarda 39,1 trln. so'mlik 620 ta loyihaning amalga oshirilishi hisobiga 56 mingdan ziyod ish o'rinlari yaratildi. Xorijiy investitsiyalar hajmi 11 trln. so'mni tashkil qilgan ham e'tiborga molik.



etdi.

Shu tariqa o'zbekistonlik bokschilar Osiyo o'yinlarida 3 ta oltin va 2 ta bronza medal jang'arib, turmiring eng yaxshi jamoalaridan biri bo'ldi.

Bundan tashqari, kechagi dasturdan o'rin olgan kurash bo'yicha bellashuvlarda ham vakillarimiz sovrindorlar safidan joy oldi. Jumladan, yunon-rum kurashi bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Rustam Assakalov faoliyatida uchinchi bor Osiyo o'yinlarining shohsupasiga ko'tarildi. 97 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida ishtirok etgan hamyurtimiz bronza uchun kechgan bahsda qozog'istonlik Islam Umayev ustidan muddatidan ilgari g'alaba qozonib, musobaqani uchinchi o'rinda yakunladi. Bungacha Assakalov hisobida Osiyo o'yinlarining oltin va kumush medallari bor edi.

Aktenge Keunimjayevo Osiyo

o'yinlarida medalga sazovor bo'lgan ilk kurashchi qizimizga aylandi. Musobaqada 50 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida ishtirok etgan hamyurtimiz uchinchi o'rin uchun kechgan bahsda hindistonlik Puja Dxnadandan ustun keldi.

Kurash bo'yicha O'zbekiston ayollar terma jamoasi a'zosi Laylo Sobirova ham o'z nomini Osiyo o'yinlari sovrindorlari qatoriga qo'shib qo'ydi. Hamyurtimiz 57 kilogrammgacha bo'lgan vazn toifasida bronza medal uchun kechgan bellashuvda hindistonlik Mansi Mansini mag'lub etdi.

Musobaqaning navbatdagi kunidan so'ng O'zbekiston terma jamoasi 19 ta oltin, 16 ta kumush va 25 bronza, jami 60 ta medal jang'arib, umumjamoa hisobida 5-o'rinda bormoqda.

"Xalq so'zi".

Hasan PAYDOYEV olgan suratlari.

Senator va hayot

JOYLARDA AHOLI VAKILLARI BILAN UCHRASHUVLAR OʻTKAZILMOQDA

Shu kunlarda senatorlar hududlarda boʻlib turibdi. Bu jarayonda Oliy Majlis Senatining qirq beshinchi yalpi majlisida maʼqullangan qonunlar va koʻrib chiqilgan masalalar mazmun-mohiyati aholiga tushuntirilmoqda. Ayni chogʻda parlament yuqori palatasi hamda uning Kengashi va qoʻmitalari qarorlari ijrosi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga toʻsiq boʻlayotgan muammolar oʻrganilyapti hamda Senatga kelib tushgan murojaatlar koʻrib chiqilmoqda.

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi raisi Q. Burhonov Toshkent viloyatida boʻlib, shu masalalar yuzasidan turli uchrashuv va muloqotlar oʻtkazyotir. Xususan, senator xalq deputatlari Nuraifshon shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish boʻyicha doimiy komissiyasi yigʻilishida qatnashdi va sohadagi islohotlar yuzasidan atroflicha maʼlumot berdi.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi raisi M. Qodirxonova Toshkent viloyatining Qibray tumani hokimligi va killari bilan hududdagi mahalla fuqarolar yigʻinlarida oʻrganishlar olib bordi, aholi vakillari bilan muloqotlar oʻtkazdi.

Dastlab, Sharq mahallasida sayyor qabul tashkil etildi. Samimiy ruhda kechgan qabulda fuqarolarning ijtimoiy soha, qurilish, transport, tibbiyot va kommunal tizimga oid murojaatlari batafsil koʻrib chiqildi. Aholini qiynab kelgan muammolarni aniqlash va ularni joyida hal etish borasida tegishli tashkilotlar vakillariga aniq vazifalar yuklandi.

Sayyor qabul jarayonida M. Qodirxonova Senatga murojaat yoʻllagan fuqarolar bilan ham uchrashib, ular tomonidan koʻtarilgan masala yuzasidan joyida oʻrganishlar olib bordi. Xususan, Boyjigit mahallasidagi “Mehrijon” nomli 34-koʻp tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha taʼlim tashkiloti koʻzdan kechirildi.

Maʼlum boʻlishicha, mazkur muassasa bugungi kunda taʼmirlab holatga kelib qolgan, bir yerdagi faqat nogʻironligi bor bolalar taʼlim oladi. Mahallada sogʻlom bolalar uchun maktabgacha taʼlim tashkiloti mavjud emas. Natijada odamlar bogʻcha yoshidagi farzandlarini boshqa hududlarga olib borishga majbur boʻlmoqda.

Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qoʻmitasi aʼzosi G. Maʼrufova Qarshi tumanida aholi vakillari bilan muloqotlar oʻtkazdi. Jumladan, “Shodlik” MFY “Mustafobek koʻklam dalasi” fermer xoʻjaligida paxta terimi bilan band boʻlgan xotin-qizlar ishtirokida boʻlib oʻtgan uchrashuv gʻoyat samimiy kechdi. Senator terimchilarga yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi.

Ayni chogʻda ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan xotin-qizlar va yoshlar masalalari ham oʻrganildi.

Shuningdek, G. Maʼrufova oʻzini oʻzi band qilish maqsadida tikuvchilik yoʻnalishini tamomlagan, “ayollar daftari”ga kiritilgan 8 nafar xotin-qiz bilan suhbatlashdi. Uchrashuvda ularga tikuvchilik yoʻnalishida oʻqishni tamomlaganligi toʻgʻrisidagi sertifikatlarni topshirdi.

Aytilish joiz, tikuv mashinalari “Ayollar jamgʻarmasi” subsidiyalari asosida berildi.

Senatning Fan, taʼlim va sogʻliqni saqlash masalalari qoʻmitasi aʼzosi M. Salimova Fargʻona viloyatida tibbiyot xodimlari va talaba-yoshlar bilan uchrashdi.

Unda senator parlament yuqori palatasining qirq beshinchi yalpi majlisida maʼqullangan qonunlar mazmun-mohiyati va ahamiyati xususida soʻzlab berdi.

Xususan, “Pedagogning maqomi toʻgʻrisida”gi hamda “Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi qonunlar chuqur tahlildan oʻtkazildi.

Senatorlarning hududlardagi muloqotlari davom etmoqda.

“Xalq soʻzi”.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi:

TARAQQIYOTNING YANGI BOSQICHI

Yaqinda muhim voqeik — shu yil 11-sentabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farmoni bilan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi tasdiqlandi hamda uni 2023-yilda oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirish boʻyicha qaror qabul qilindi. Ushbu dasturilamal hujjat xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi Oʻzbekistonni barpo etish boʻyicha xohish-istagini roʻyobga chiqarish, har bir fuqaroga oʻz salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatni yaratish, sogʻlom, bilimli va maʼnaviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim boʻgʻiniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli taʼminlash maqsadida Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida oʻrtirilgan tajriba va keng jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqildi.

Nuqtai nazar

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi beshta yoʻnalish va 100 maqsaddan iborat boʻlib, unda barqaror iqtisodiy oʻsish orqali daromad oʻrtachadan yuqori boʻlgan davlatlar qatoridan oʻrin olish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga toʻliq javob beradigan taʼlim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolati va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning

Unga koʻra, qishloq xoʻjaligida suvni tejaydigan sugʻorish texnologiyalarini joriy qilish va sugʻoriladigan maydonning har bir gektariga beriladigan suv hajmini 20 foizga kamaytirish orqali suvning mahsuldorligi oshiriladi. Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash orqali 1 metr kub hajmdagi suv bilan sugʻorilgan yer maydonidan 3,7 dollar miqdorida daromad olishga erishiladi.

Suvdan samarali foydalanishda



suvereniteti va xavfsizligini kafolatli taʼminlash asosiy gʻoyalari sifatida belgilandi.

Umuman olganda, mazkur strategiya barcha soha va yoʻnalishlarda bir qator ustuvor maqsad-vazifalar oʻz aksini topgan.

Xususan, butun dunyoda suv tanqisligi ortib borayotgan bir paytda Oʻzbekistonda ham qishloq xoʻjaligida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy qilishga alohida eʼtibor qaratilayotganining namoyoni sifatida strategiyada aniq chora-tadbirlar belgilangan.

zamonaviy boshqaruv tizimining ham oʻrni beqiyos. Shu bois 2030-yilgacha kamida 100 ta yirik suv xoʻjaligi obyekti avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga oʻtish, irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini koʻpaytirish maqsad qilingan.

Oʻrni kelganda taʼkidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon choʻllanish va qurgʻoqchilikka qarshi kurash boʻyicha bayonotiga koʻra, 2050-yilga borib qurgʻoqchilik



dunyo aholisining toʻrtidan uch qismidan koʻprogʻiga taʼsir etadi. Jahon tabiiy resurslar instituti va Britaniyaning “Economist Intelligence Unit” tashkiloti tadqiqotlariga koʻra esa 2040-yilga borib suv tanqisligiga eng koʻp uchrashi taxmin qilinayotgan 33 davlat orasida Markaziy Osiyo mamlakatlari, xususan, Oʻzbekiston ham bor.

Ochigʻi, Markaziy Osiyoda suvning 80 foizdan ortigʻi qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun ishlatiladi. Shu bois Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda qishloq xoʻjaligi sohasida suv tejovchi texnologiyalardan samarali foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, Oʻzbekiston Prezidenti xalqaro darajadagi tadbirlar va minbarlarda bir necha bor vujudga kelishi mumkin boʻlgan suv tanqisligini hamda ekologik muammolarni birgalikda hal etishga qaratilgan bir qator tashabbuslarni ilgari surib kelmokda. “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining beshta ustuvor yoʻnalishining uchinchi aynan “Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish”ga qaratilgan maqsadlarni oʻzida jamlagan ham bejiz emas. Xususan, strategiyada suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, barcha ekin maydonlarini toʻliq suv tejaydigan texnologiyalarga, ichki sugʻorish tarmoqlarining 50 foizini yopiq quvurli sugʻorish tizimlariga oʻtkazish maqsad qilingan.

Shuningdek, suv yetkazish tizimiga ilgʻor xorijiy tajribalarni keng joriy etgan holda tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga oʻtkazish boʻyicha yetti yillik chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Shu bilan birga, respublika suv resurslarining uzoq muddatga moʻljallangan balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring oʻrnatish tizimi yoʻlga qoʻyiladi.

Sir emaski, mamlakatimiz qishloq xoʻjaligida foydalanilayotgan suvlarning asosiy qismi qoʻshni davlatlar orqali kirib keladi. Shuning uchun ham strategiyada qoʻshni davlatlar bilan suv resurslari va davlatlararo suv xoʻjaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida ikki tomonlama manfaatli faol hamkorlik davom ettirilishi belgilangan.

Umuman olganda, mamlakatimizni kelgusi yetti yilda rivojlantirishga qaratilgan strategiya doirasida global darajadagi ekologik muammolar taʼsirini oʻz vaqtida bartaraf etish va qishloq xoʻjaligi boshqaruvi samaradorligini oshirish orqali aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga ham alohida eʼtibor qaratilgan.

Shu oʻrinda yana bir jihat. Qayd etish joizki, mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bilasiz, davlatimiz rahbari oʻz Saylovoldi dasturida keyingi yetti yilda taʼlim va tibbiyot tizimini tubdan rivojlantirish borasida aniq maqsadli rejalarni eʼlon qilgan edi. Aynan ushbu dasturda bildirilgan bu boradagi fikrlar, reja va takliflar “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida “Har bir insonga oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish” yoʻnalishida aks ettirilib, eng birinchi navbatda, taʼlim va tibbiyot tizimidagi islohotlarga katta eʼtibor qaratilayotir.

Xususan, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida ming nafar tarbiyachi va oʻqituvchini xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish, boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻquv yuklamasini 16 soat, yuqori sinf oʻqituvchi-

lariga esa 18 soat etib belgilash, olish va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy oʻrta taʼlim muassasasi oʻquvchilari uchun bepul maktab avtobuslarini yoʻlga qoʻyish kabi masalalar ham oʻrin olgani eʼtiborga molik.

Ayni chogʻda taʼlim tizimining barcha bosqichida boshlangan islohotlar jadallik bilan davom ettirilishi maqsad qilinmoqda. 2023 — 2030-yillarda bolalarni maktabgacha taʼlim va tayyorlov guruhlariga bilan qamrab olish darajasi 100 foizga yetkaziladi. Buning uchun 2 mingta yangi bogʻcha bunyod etiladi. Maktabgacha taʼlim tashkilotlari 100 foiz toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan taʼminlanadi.

Shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim tizimida “Taʼlim uchun qulay muhit” dasturi amalga oshiriladi. Natijada, 2023/2024 oʻquv yilidan boshlab har yili 500 ming yangi quvvat tashkil etilib, oʻquv oʻrinlari soni 7,5 millionga yetkaziladi. 2,5 mln. oʻquvchi oʻrniga ega maktablar qurishga 8 mlrd. dollar ajratiladi.

Ayni jarayonlarda oʻquvchi-yoshlarimizning oliy taʼlim olishga boʻlgan intilishlarini ham toʻlaonli qamrab olishga alohida eʼtibor qaratiladi. Yoshlarni oliy taʼlim bilan qamrab olish darajasi kamida 50 foizga yetkazilib, davlat granti asosidagi qabul parametrlari 2 barobarga oshiriladi. “Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qoʻshma taʼlim dasturi va “Ikki diplomli tizim” joriy qilinadi. 5 ta oliy taʼlim muassasasi milliy tadqiqot oliygoʻhlariga aylantirilib, qoʻshimcha 120 ming oʻrinli oʻquv binolari hamda 150 ming oʻrinli talabalar turarjoylari quriladi.

Ushbu maqolada “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasining ikki ustuvor yoʻnalishiga eʼtibor qaratdik. Shubhasizki, ushbu hujjatning har bir bandi mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. Ushbu ulugʻvor gʻoyalari esa mamlakatimizda inson qadri yanada ulugʻlanayotgani, uning salohiyatini yuksaltirish, orzu-umidlarini roʻyobga chiqarish, tinch-osoyshta, baxtli va farovon hayotini taʼminlash bosh maqsadga aylangani ifodasidir.

Faxriddin ISAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
Oʻzbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari ilmiy-tadqiqot markazi direktori oʻrinbosari,
(DSc), dotsent.

OʻZBEKISTONLIK MAKTAB OʻQUVCHISI XALQARO INGLIZ TILI FANI OLIMPIADASIDA BIRINCHI OʻRINNI EGALLADI

Rimda “Global Hippo Association” tashkiloti tomonidan oʻtkazilgan “HIPPO” xalqaro ingliz tili fani olimpiadasining yakuniy bosqichi boʻlib oʻtdi.

Faxr

Maʼlumot oʻrinda aytilish joiz, “Global Hippo Association” nodavlat notijorat tashkiloti 2012-yilda tashkil etilgan. Ushbu NNT ingliz tili asosiy til boʻlmagan davlatlarda maktab oʻquvchilari orasida mazkur tilni oʻrganishni targʻib qiladi. Buyuk Britaniyaning “Pearson Education” tashkiloti bilan hamkorlikda 2013-yildan buyon 1 — 11-sinf oʻquvchilari orasida har yili “HIPPO” xalqaro ingliz tili fani olimpiadasi oʻtkazib kelinmoqda.

Joriy yilda mazkur olimpiadaning saralash bosqichlarida 70 ga yaqin davlatlarning 83 mingdan ziyod oʻquvchilari ishtirok etdi.

“HIPPO” xalqaro olimpiadasining Oʻzbekistondagi saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli oʻtgan oʻquvchilar shu yil iyun oyida Istanbulda (Turkiya) oʻtkazilgan yarimfinal bosqichida kuch sinashdi. Unda Buxoro, Sirdaryo va Toshkentdagi maktablarning toʻqqiz nafar oʻquvchisi oʻz guruhlarida gʻolib chiqib, final bosqichiga yoʻllanma olgan edi.



Shu yilning 27 — 29-sentabr kunlari Rimda Italiya Tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vazirligi shafeligida oʻtkazilgan yakuniy bosqichda qator davlatlardan kelgan 273 nafar oʻquvchi ingliz tilida oʻz bilimlarini sinash uchun turli guruhlarda oʻzaro bahslashdi.

Xalqaro olimpiadada guruhlar oʻrtasida kechgan bilimlar bellashuvida Sirdaryo viloyati maktab oʻquvchisi Nigora Toʻychiboyeva “Little Hippo” guruhida gʻolib boʻlib, birinchi oʻrinni egalladi.

Tashkilotchilar sovrindorlarni xalqaro sertifikat, medal va qimmatbaho sovgʻalar bilan taqdirladi. Ushbu xalqaro olimpiadaning kelgusi yildagi final bosqichi Italiyaning Sitsiliya orolida boʻlib oʻtishi maʼlum qilinadi.

“Dunyo” AA.
Rim

Harbiy qasamyod

VATANGA XIZMAT — BURCH VA SHARAF

Vatan himoyasidek muqaddas xizmatni oʻtash har bir yigit uchun shara. Aslida yigit koʻksini gʻururga toʻldiradigan damlar ham shu — harbiy xizmatga chorlanish. Oʻzbekiston Qurolli Kuchlari Markaziy harbiy okrugining Navoiy harbiy garnizonida shunday askarlardan bir guruhining harbiy qasamyod qabul qilish marosimi boʻlib oʻtdi.

Tadbirda okrug qoʻmondonligi vakillari, askar yigitlarning ota-onalari, nuroniylar hamda keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Viloyat hokimi yigitlik ontini ichayotgan askarlarni hayotidagi unutilmas lahzalar bilan qutlab, Vatan uchun xizmat qilish — sharaf, yurt osoyishtaligini asrash — burch, sarhadlar daxlsizligi uchun fidoyilik — mardlik namunasi ekanligini taʼkidladi.

Shuningdek, mamlakatimizda oʻtgan yillar mobaynida milliy armiyamizni modernizatsiyalash va isloq qilish, eng zamonaviy qurol-yarogʻ, harbiy texnika turlari bilan qurollantirish, harbiy xizmatdagi ularning oila aʼzolarini uy-joy bilan taʼminlash, moddiy, ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash borasida ulkan ishlar amalga oshirilganligi, muddati harbiy xizmatni sharaflar bilan oʻtagan askarlarga bir qator imtiyozlar berilishi yoshlarning hayotdan munosib oʻrin topishiga xizmat qilayotganligi eʼtirof etildi.

— Farzandining “Vatan himoyachisi boʻlaman” degan ahdini eshitgan ota-ona qachalar suyunishini tasavvur qilish qiyin emas. — deydi ota-onalardan birl Rizoqul Toshonov. — Ming qatla shukur, yurtimiz tinchi, osmonimiz musaffo. Bularning barchasi Prezidentimizning oqilona siyosati samarasi, deb bilaman. Yurtboshimiz yaqinda BMTning yuksak minbaridan mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash borasida bir qator takliflarni ilgari surgani va ular hamjamiyat tomonidan xayrixohlik bilan qabul qilinganligi koʻnglimizni togʻdek koʻtardi.

Tadbirda, shuningdek, yoshlarni Vatanga muhabbat, istiqloq gʻoyalari sadoqat, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalab, milliy armiyamiz safarida xizmat qilish ishtiyoqini yanada kuchaytirishda ota-onalar va mahallaning oʻrni yuksak ekanligi qayd etildi.

Temur ESHBOYEV
 (“Xalq soʻzi”).

Fikr

Ayni chogʻda qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarning umumiy maydoni 20 236,3 ming gektarni tashkil etadi. Bundan 3,2 mln. gektari sugʻoriladigan ekin yer maydonlari boʻlib, unda aholining ehtiyoji uchun oziq-ovqat mahsulotlari, iqtisodiyot tarmoqlari uchun esa zarur xomashyo yetishtirilmoqda.

Lekin soʻnggi yillarda mamlakatimiz aholisi sonining yuqori surʼatlar bilan oʻsib borishi, qishloq xoʻjaligi yerlarining boshqa toifaga oʻtkazilishi va global iqlim oʻzgarishi taʼsirining keskinlashuvi oqibatida aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sugʻoriladigan yer maydonlari oʻlchami 24 foizga, oʻrtacha yillik suv taʼminoti darajasi esa 3 048 metr kubdan 158,9 metr kubgacha qisqargani kuzatilmoqda.

Bu borada yurtimizda sugʻoriladigan maydonlarning unumdorligini oshirish, meliorativ holati va suv taʼminotini yaxshilash maqsadida davlat dasturlari doirasida keng koʻlamli irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bu saʼy-harakatlar natijasida 2008 — 2017-yillar mobaynida 1,7 mln. gektardan ortiq sugʻoriladigan maydonlarning suv taʼminoti hamda 2,5 mln. gektar yerning meliorativ holati yaxshilanishiga erishildi.

Prezidentimizning 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xoʻjaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni ushbu salbiy oqibatlarining taʼsirini kamaytirish va kelgusida bartaraf etishga xizmat qilayotir.

Mazkur hujjatdan respublikada

yillar davomida irrigatsiya va melioratsiya holati yomonlashuvi natijasida foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni bosqichma-bosqich qayta foydalanishga kiritish, yer osti suv zaxiralardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda ichki irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish orqali suv yoʻqotilishini kamaytirishdek muhim vazifalar oʻrin olgan.

Oʻtgan qisqa davrda sugʻoriladigan va lalmi yerlar, togʻ va togʻoldi hamda choʻl-yaylov hududlarining tuproq unumdorligini oshirish, suv va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish boʻyicha keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Qolaversa, zamonaviy usullar asosida mamlakat oziq-ovqat taʼminoti barqarorligiga erishish uchun yangi serhosil qishloq xoʻjaligi ekinlari, ularning birlamchi urugʻchilgini yaratishga alohida eʼtibor qaratilyapti.

Olib borilayotgan chora-tadbirlar qishloq xoʻjaligida suv resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish, tabiiy tizimlarda ekologik muvozanat va bioxilma-xillikni saqlashga yordam beradi. Toza va sogʻlom suv ekotizimlarini saqlash ularni

ifloslantiruvchi moddalarni mustaqil ravishda qayta ishlash va turli xil suv organizmlarining hayotini qoʻllab-quvvatlash qobiliyatini taʼminlaydi.

Qishloq xoʻjaligida ishlatiladigan kimyoviy oʻgʻitlar va pestitsidlar agar ular toʻgʻri ishlatilmasa, suv resurslarini ifloslantirishi mumkin. Atrof-muhit omillarini hisobga olish va suv resurslarini hurmat qilish suvning kimyoviy birikmalar bilan ifloslanish xavfini kamaytirishga, sanoat va maishiy maqsadlarda foydalanish uchun zarur boʻlgan suv sifatini oshirishga yordam beradi.

“Oʻzbekiston — 2030” strategiyasida 18,7 ming km. yoki 66 foizi tuproq oʻzanli boʻlgan magistral va xoʻjaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming km.ga yoki 46 foizga yetkazish, shuningdek, melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish natijasida sugʻoriladigan yerlarda

Umuman olganda, agrosanoat tizimida suv resurslarini saqlash, ekologik omillarni hisobga olish fermerlar va qishloq xoʻjaligi korxonalarining jamiyat oldidagi masʼuliyati va burchidir. Zero bu oziq-ovqat xavfsizligini va uzoq muddatli qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni taʼminlashga xizmat qiladi.

Botirbek TOʻRAZODA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

QUVVATLAR
MODERNIZATSIYASI
BARQAROR TA'MINOT GAROVI

Xalqimizning fidokorona mehnati, yakdilligi, ustuvor va ulug'vor maqsadlar sari dadil intilishi orqali mamlakatimiz har bir sohada sezilarli yutuq va muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Xususan, gidroenergetika yo'nalishida ham ana shunday fikrlarni aytish mumkin.

Bu borada "O'zbekgidroenergo" AJ ham o'z faoliyatini yanada rivojlantirib, yangi gidroelektrostansiya (GES) larni qurish hamda uzoq yillardan buyon faoliyat yuritayotganlarini modernizatsiyalash bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Sir emas, yurtimizning eng tarixiy va salohiyatli, shu bilan birga, istiqbolli GESlaridan biri, bu — Farhod GESsi hisoblanadi.

Kecha ushbu GES modernizatsiyadan so'ng yangilangan energetik quvvatda ishga tushirilishiga bag'ishlangan tantanalı tadbir o'tkazildi.

Marosimda tizimdagi korxona hamda tashkilotlar vakillari, mahalliy hokimliklar, hamkor xorijiy kompaniyalar mas'ullari, gidroenergetik muhandislar, shuningdek, jurnalistlar qatnashdi.

Ma'lumot uchun aytish joizki, uzoq yillar davomida doimiy ekspluatatsiya tufayli GESdagi ko'plab uskunalar jismoniy va ma'naviy eskirgan edi. Shundan kelib chiqib, Prezidentimizning 2017-yil 2-maydagi "2017 — 2021-yillarda gidroenergetikani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan GESni modernizatsiya va qayta texnik jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bu ishlarga "O'zbekgidroenergo" AJning mablag'ları hamda Rossiya Federatsiyasining tijorat banki kreditlari yo'naltirildi.

Mavjud quvvatni 104 MVtdan 128 MVtga oshirish, jismonan va ma'nau eskirgan jihozlarni yangi va sinalgan qurilmalarga almashtirish, uskunalarini uzluksiz joriy hamda mukammal ta'mirlashga chiqarishni kamaytirish, agregatlarning foydalanish muddatini 40 yilga uzaytirish va har bir kub metr suv sarfidan samarali foydalanish, elektr energiya tannarxini pasaytirish kabi omillarga e'tibor qaratildi.

Modernizatsiya loyihasida bosh pudratchi tashkilot sifatida Rossiya Federatsiyasining "Силовые машины" AJ qatnashdi. Subpudratchi tashkilot sifatida esa O'zbekiston va Rossiya hamkorligidagi "Energoresurs" qo'shma korxonasi ishtirok etdi.

Shartnoma shartiga ko'ra, loyiha ikki bosqichda amalga oshirildi. Xususan, birinchi bosqich — 2019-2020-yillarda — 3 va 1-gidroagregatlar, ikkinchi bosqich — 2021-2022-yillarda — 4 va 2-gidroagregatlar.

Bugungi kunda modernizatsiya ishlari to'liq yakuniga yetgan bo'lib, gidroagregatlarning jami nominal quvvati 128,2 MVtga yetkazildi. Agregatlarga suv sarfi ham 107,3 kub metr (1,2) va 113 kub metr (3,4) miqdorda sarflanib, texnik-iqtisodiy jihatdan samaradorlik ko'rsatkichlarining o'sishiga xizmat qilmog'ida.

Modernizatsiya davomida ochiq taqsimlash quurilmasi (OTQ)-110/35 kV kommutatsiya qurilmalaridan moyli o'chirgichlar zamonaviy elegazli o'chirgichlar bilan almashtirildi.

Qayd etish lozimki, avvalgi moyli o'chirgichlar yong'in va portlashlarga olib kelganligi sababli ekspluatatsiya xarajatlari oshishiga sabab bo'lgan. Elegazli o'chirgichlar esa 1 kVdan yuqori har qanday kuchlanishlarda ishlashi,

o'chirish-yoqish paytida sodir bo'ladigan yoysimon olovning yopiq hajmda, ochiq havoga zararsiz o'chirilishi, nisbatan kichik vazn va hajmga egaligi, yong'in-portlash xavfining yo'qligi, tez ishlashi, yuqori o'chirish qobiliyati, kontaktlarining kam yemirilishi tufayli uzoq va ovozsiz ishlashi, ochiq hamda yopiq qurilmalarda o'rnatilish imkoniyati, xavfsiz ekspluatatsiyasi tufayli samarali hisoblanadi.

Modernizatsiya ishlari davomida GESning eski 1 va 2-agregatlari to'liq yangisiga almashtirildi, 3 va 4-agregatlar esa butunlay modernizatsiya qilindi.

Yangi agregatlarning eskilaridan asosiy farqi har bir kVt uchun suvning kamroq sarflanishi, boshqaruv hamda avtomatik tizimining zamonaviyligi, uzoqroq muddatlarda ishlab, ekspluatatsiya xarajatlari kamaytirishga xizmat qilishi va eng asosiysi, xavfsiz hamda ishonchli ishlashidir, — deydi "O'zbekgidroenergo" AJ axborot xizmati rahbari Ravshan Boyqulov. — Agar solishtiradigan bo'lsak, eski transformatorlarda me'yor bo'yicha umumiy 180 tonna atrofida moy sig'imi bo'lgan bo'lsa, yangi transformatorlar umumiy 120 tonna atrofida moy sig'imiga ega. Eski transformatorlarda sizib chiqishlar tufayli har yili yo'qotilish o'rmini qoplash uchun qo'shimcha moy quyilgan. Yangi transformatorlarda esa moy sizish holatlari yo'q.

Mutaxassislarning fikricha, moy sarfi tejamkorligi va ta'mirlashning kamayishi eskilarga nisbatan yangi transformatorlarning texnik-iqtisodiy jihatdan samarador ekanligini ko'rsatadi.

Korxonada energetika qurilmalarining yangilanishi hisobiga ularning xizmat qilish muddati kamida 40 yilga uzayishi kutilmoqda. Bu esa modernizatsiyadan so'ng o'rtaacha yiliga 531,2 mln. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. O'z navbatida, ushbu ko'rsatkich bugungi kunda yiliga 167,3 mlrd. so'mlik energiya manbai, deganidir.

Umuman olganda, mamlakatimiz gidroenergetika sohasining izchil taraqqiyoti elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish bilan birga, yangi GESlar qurilayotgan, modernizatsiya qilinayotgan gidrotexnik inshootlar joylashgan hududlar ijtimoıy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush farovonligining oshishi, xonadonlar nurafshonligi, eng muhimi, yangi O'zbekiston iqtisodiyotining yanada taraqqiy etishiga muhim hissa qo'shadi.

Darvoqe, tadbir davomida savob ishga qo'l urildi.

"Farhod GES" unitar korxonasining qo'shimcha daromadlari hisobidan ehtiyojmand oilalarni qo'llab-quvvatlash va quvonch ulashish maqsadida korxona ishchi-xodimlari hamda GESga yaqin joylashgan mahallalarda istiqomat qiluvchi oilalar 11 nafar farzandining sunnat to'yi o'tkazib berildi.

Bolajonlarga korxona tomonidan velosiped hamda televizorlar esdalik sovg'alari sifatida taqdim etildi.

Rahim SHERQULOV ("Xalq so'zi").

OVULLARGA OBIHAYOT KELDI

Shu yilning 22-sentabr kuni Prezidentimiz raisligida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazilgan edi. Unda so'nggi olti yilda ichimlik suvi sohasiga Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar oldingi davrdagiga nisbatan ko'paygani, natijada minglab mahallalarda yashaydigan aholi xonadonlariga toza ichimlik suvi kirib borganı ta'kidlandi. Ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlangan minglab mahallalar haqida eshitib, beixtiyor xayolimdan bundan 20 yilcha oldin talabalik davrimizda paxta terimiga borgan ovullarga ham suv yetganmikan, degan o'y o'tdi.

Infratuzilma

...2005-yil kuz fasli. Shumanay tumanidagi ovullarning biriga paxta terimiga borganmiz. Ovul hududida suv tarmog'ining o'zi yo'q. Oktabr oyi boshlanishi bilan qishloqqa yaqin joydagi ariq, kanallarda suv deyarli yo'qolmadi. Keyin ovuldagi yosh bolalar ko'magi bilan 4-5 kilometr masofadan suv olib kelina boshlandi. Xo'jayli tumanining Qamish jali ovulida ham xuddi shunday ahvol edi.

Xullas, keyingi yillarda Qoraqalpog'istondagi olis ovullarni ichimlik suvi bilan ta'minlash jarayonida Xo'jayli tumanidagi o'sha Qamish jali ovuliga ham suv quvuri tortildimkan, dega surishtirib bordim. Buni qarangki, oldin suv tarmog'i ham bo'lmagan va bugun ichimlik suvi bilan ta'minlangan mingta hudud ichida Qamish jali ovuli ham bor ekan...

— Prezidentimizning Qoraqalpog'istonga qaratayotgan alohida e'tibori, qolaversa, Jo'qorg'i Kenges raisining tumanimizda aholi bilan o'tkazgan sayyor qabullaridagi

murojaatlarning ijobiy natijalari bizning ovulimizdagi o'zgarishlarda namoyon bo'lmoqda, — deydi Qamish jali ovuli biyi (ko'chaboshi) Xalmurat Saparov. — Ovulimizda oldin suv tarmoqlari bo'lmagan. Ichimlik suvini artezian quduqlardan olardik. Hududda qazilgan artezian quduqlarning ko'pchiligidan iste'molga yaroqsiz, sho'r suv chiqardi. Aholining bu boradagi murojaati inobatga olinib, ovulimizga ichimlik suvi keldi. Xalqimiz bu kabi xayrli ishlar boshida turgan insonlardan minnatdor.

Darhaqiqat, hududda so'nggi yillarda boshqa sohalar kabi aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasida ham keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotir. Ayniqsa, Prezidentimizning 2017-yil 20-21-yanvar kunlari Qoraqalpog'istonga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari asosida 101 kilometrlik yangi suv tarmog'i tortildi. Natijada qisqa muddatda eng olis hudud bo'lgan

Mo'ynoq aholisi toza ichimlik suvi bilan ta'minlandi va bu ish o'sha vaqtda ta'bir joiz bo'lsa, olamshumul voqeaga aylangan edi.

Olis hududlarga suv yetkazish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinsa, 2017-yilda Mo'ynoqqa suv yetkazilgani bu boradagi ishlarning debochasi bo'lganini ko'rish mumkin. Darvoqe, yigirma yilcha oldin ichimlik suvi ta'minoti juda og'ir hududlardan biri bo'lgan Shumanay tumanida bugun aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi qanday? Bu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mas'ullardan ma'lumot olishga harakat qildik.

— Shumanay tumanida o'tgan besh-olti yilda umumiy qiymati 31,6 mlrd. so'mlik loyiha asosida 164,4 kilometrlik ichimlik suvi tarmoqlari tortildi, — deydi "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ raisining o'rinbosari Bayram Matmuratov. — Shuningdek, 6 ta suv inshootida qurish va rekonstruksiya ishlari bajarildi. 2016-yilning yakuniga ko'ra, tuman aholisining 39,5 foizi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 64,6 foizga yetkazildi.

Olis hududlarga ham suv tarmoqlari tortilib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi respublika hududida keskin oshgani tahiliy raqamlarda ham namoyon bo'layotir.

Masalan, 2016-yil yakuniga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 1 mln. 791,1 ming aholi istiqomat qilgan bo'lsa, shundan 909,3 ming, ya'ni 50,8 foiz aholi markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan edi. Mavjud 91 ta suv inshootidan 45 tasi va 4 805 kilometrlik ichimlik

suvı tarmoqlaridan 1 466 kilometri ta'mirtalab holatda bo'lgan.

Prezident qarorlari hamda hududga tashrifi davomida berilgan topshiriqlari asosida aholining ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, suv ta'minoti og'ir bo'lgan aholi punktlariga toza ichimlik suvi yetkazib berish maqsadida o'tgan yillar davomida yuzlab suv inshootlari va uch ming kilometrga yaqin ichimlik suvi tarmoqlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish ishlari bajarilgan.

Darvoqe, joriy yilda esa respublika aholisining ichimlik suvi ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida umumiy qiymati 211,8 mlrd. so'm mablag' yo'naltirilib, 383,8 kilometrlik ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda 24 ta suv inshootini yangidan qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilmog'ida. Natijada 75,5 ming aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlanishi, 138,6 ming aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanishi hamda yil yakuniga qadar ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini 74,3 foizga yetkazish kutilmoqda.

"Qoraqalpoq suv ta'minoti" MCHJ tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, kelgusida aholining ichimlik suvi ta'minotini yanada yaxshilash maqsadida 2024 — 2026-yillarda amalga oshiriladigan ishlarning dastlabki manzilli dasturi ishlab chiqilib, unga ko'ra qiymati 420,3 mlrd.

Umuman olganda, Qoraqalpog'istonda ichimlik suvi yetib bormagan hududlarga suv tarmoqlarini tortish hamda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi ishlar qizg'in davom ettirilaypti. Bu esa qoraqalpoq elining ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada oshirib, turmush farovonligini ta'minlashga yo'l ochyapti, desak, ayni haqiqat.

G'ayrat OTAJONOV ("Xalq so'zi").

"TURKIY ADABIYOT DURDONALARI" TAQDIMOTI

Samarqand shahridagi viloyat axborot-kutubxona markazida "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli 100 jilddan iborat kitoblar turkumining taqdimoti hamda mazkur asarlarning muallif va ijodkorlari bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuv

Tadbirda 100 jildlik asarlar majmuasini nashrga tayyorlovchi ishchi guruh a'zolari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari bo'lgan yozuvchi, shoir va tarjimonlar, sharqshunos olimlar, jurnalistlar hamda adabiyot ixlosmandlari ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, "Turkiy adabiyot durdonalari" nomli mazkur 100 jildlik kitoblar turkumi Prezidentimizning Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining 2019-yil 15-oktabr

kuni Bokuda bo'lib o'tgan 17-sammitdagi tashabbusiga muvofiq nashr etilgan. Ushbu jamlamaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, shuningdek, kuzatuvchi mamlakatlar — Turkmaniston va Vengriya davlatlarining XI — XXI asrlarga mansub jami 629 nafar atqoli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritilgan.

— Mazkur majmuani tayyorlash uchun 200 dan ortiq tarjimonlar, 100 dan ziyod

adabiyotshunos va matnshunos olimlar, adiblar, muharrir hamda rassomlar jalb etildi, — deydi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bosh mutaxassisi, 100 jildlik kitoblar turkumini nashrga tayyorlovchi ishchi guruhning muvofiqlashtiruvchisi Risolat Haydarova. — Mazkur majmuaning 5 jildi umumiy adabiyotlar, o'zbek adabiyoti — 28, qoraqalpoq adabiyoti — 5, turk adabiyoti — 17, ozarbayjon adabiyoti — 16, qozoq adabiyoti — 10, qirg'iz adabiyoti — 9, turkman adabiyoti — 9 jildni va 1 jildi venger adabiyotini o'z ichiga oladi. Asarlar majmuasi dastlabki tarzda 200 ming



nusxada chop etilgan. Taqdimot marosimi hamda ijodiy muloqot unutilmas kitob bayramiga aylanib ketdi.

Abdulaziz YO'LDOSHEV ("Xalq so'zi").

IRODALI INSON
HAYOTDA O'Z O'RNINI TOPADI

Inson hayotida o'tayotgan kunning qanday bo'lgani, ahamiyati erishgan yutuqlari bilan belgilanadi, deydi. Shahrisabzlik tadbirkor, tajribali bog'bon Akbar Hasanovning baxtsiz hodisa tufayli ikki oyog'idan ajralganiga qaramay, sohada ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib kelayotgani haqida eshitib, u bilan suhbatlashish fikri tug'ildi. Ayni shu maqsadda ushbu tumanga tadbirkorni izlab yo'lga chiqdik...

Oramizdagi odamlar

Bizni Akbar Hasanov kutib oldi. To'g'risi, bir qarashda qadamlari shaxdam, mehnatda pishgan, chayir, o'ktam ovozi, yuz-ko'zlarida hayotdan mamnunlik hissi aks etib turgan bu odamning nogironligi bo'lgan inson ekanligiga ishonging kelmaydi.

Qahramonimiz bizni o'zi rahbarlik qilayotgan "Hasanov Akbar Muhammadiyevich" MCHJ bog'dorchilik fermer xo'jaligining dala shoyponiga boshladi. Shu yerdagi supada biroz suhbatlashdik. Ko'nglimizdan o'tganini ilg'adi chog'i, gapni bolalik xotiralardan boshladi.

— O'shanda o'n yoshida edim, — deydi u protez oyoqlariga ishora qilib. — Ko'chada tengdoshlarim bilan chopqillab o'ynab yurgan sho'x-shodon bola edik. Baxtsiz hodisa tufayli bir kunda ikki oyog'imdan ajralganman. Bundan yaqinlarim qattiq tushkunlikka tushishgan. Ularning yuz-ko'zidagi iztirobni ko'rib, ularni ovutishga, oyoqsiz ham bemaol hamma ishni bajara olishim mumkinligiga ishonitirishga harakat

qildirdim.

Avvaliga ikki qo'lqi tayvoqda yurishni o'rgandim, keyinroq tengdoshlarim bilan protez oyoqlarimda koptok tepib, quvlashmachoq o'ynaydigan bo'ldim. Qimdir menga achinish hissi bilan qaramasligi uchun boshqalardan ko'proq mehnat qilishga, og'irroq ishlarni kam bemaol bajarishga odatlandim. To'g'ri, buni uddalash oson emas, lekin bo'sh kelmadi...

Xullas, boshidan ko'p sinovlarni o'tkazgan, ta'bir joiz bo'lsa, hayot qozonida qaynab toblangan va insonning aytishicha, protezni ham o'zi qo'lida yasab olgan ekan.

— Yoshilikda zavodda ishlab chiqarilgan, haqiqiy protezdan foydalanardim, — deydi u. — Bu protezlar ancha yengil, yurish uchun qulay, lekin og'ir ishlarni bajarishda qiyinchilik tug'diradi. Shu bois sigir terisini pishitib, uni qavat-qavat qilib qattiq o'rab, protez yasab olganman. Bu biroz og'ir bo'lsa-da, lekin chidamli. Yuk ko'tarsangiz ham, tepalikka chiqsangiz ham bemaol dosh beradi.



Boshida ozgina tajribasizlik qilib, oddiy navlardan ekan ekanman. Bu yil nobud bo'lgan daraxtlarning o'miga xorijdan keltirilgan, yuqori sifatli meva urug'larini qadadik.

Darvoqe, Akbar Hasanov 12,5 sotix maydonda issiqxona ham tashkil qilgan. Bu yerda 125 tup limon parvarishlanmoqda. E'tiborimizni tortgan jihat esa, bog'bonning payvandchilikdagi uquvi bo'ldi. Axir butalarning bir shoxida limon, boshqasida mandarin, yana birida apelsin yetilib turganini hamma joyda ham uchratavermaysiz-da.

— Limonlarim endi hosilga kira boshladi, — deydi A. Hasanov. — Ular to'liq yetilib olgach, har biridan eng kamida 25 — 30 kilogrammdan hosil olish mumkin.

Bog'dorchilik qahramonimiz tanlagan yagona yo'nalish emas.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041. 32 769 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohnani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilbi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.

Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir B. Madiyorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.35 Topshirildi — 02.40

1 2 3 4 5 6